

o‘yinlar, madaniyatlararo suhbatlar, guruh ishlarida turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish talabalarga madaniyatlarni o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlardan kelgan mutaxassislar bilan suhbatlar tashkil etish va madaniy farqlarni o‘rganish, o‘quvchilarning madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o‘rganishda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Onlayn kurslar, videokonferensiyalar va madaniyatlararo muloqotga oid ilovalar yordamida talabalar turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishlari mumkin. Madaniyatlararo onlayn almashinuvlar, ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish, talabalarga o‘z bilimlarini mustahkamlashda yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘rganish jarayonida madaniyatlararo muloqotning ahamiyati juda katta. Bu nafaqat til o‘rganish, balki o‘quvchilarning madaniyatlararo farqlarni tushunishi, kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish va global miqyosda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun muhimdir. Ingliz tilining madaniy jihatlarini o‘rganish, talabalarga nafaqat tilni o‘rganishga yordam beradi, balki dunyoqarashlarini kengaytiradi. Madaniyatlararo muloqot, talabalarни nafaqat tilni bilishda, balki turli madaniyatlar bilan samarali aloqada bo‘lishda ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. Anchor Press.
2. Kramsch, C. (1993). *Context and Culture in Language Teaching*. Oxford University Press.
3. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters*.
4. Hinkel, E. (1999). *Culture in Second Language Teaching and Learning*. Cambridge University Press.
5. Thomas, J. (1983). *Cross-Cultural Discourse: An Analysis of Cross-Cultural Communication*. Longman.

INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING AHAMIYATI VA O‘RGANISH USULLARI

Ergasheva Ruxsora

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti Ingiliz tili yo‘nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Grammatika tildagi so‘zlarni va jumlalarni tashkil etuvchi tuzilma bo‘lib, tilni o‘rganishda asosiy rolni o‘ynaydi. Ingliz tilining grammatikasi nutqning aniqligi, mantiqiyligini ta’minlaydi va yozma hamda og‘zaki nutqda o‘zaro tushunishni oshiradi. Ushbu maqolada grammatik qoidalar va ularning til o‘rganishdagi o‘rni, o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni yengish usullari tahlil qilinadi. Maqola shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol usullarni o‘z ichiga olgan holda grammatika o‘rganishni yanada samarali qilish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: grammatika, sintaksis, morfologiya, til kompetensiyasi, til o‘rganish metodikasi, interfaol usullar

Grammatika – tilning eng asosiy qismlaridan biri bo‘lib, so‘zlarni va ifodalarni to‘g‘ri va mantiqiy tarzda joylashtirishga yordam beradi. Tilni o‘rganishda grammatikani mukammal o‘zlashtirish muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi grammatik qoidalar til o‘rganish jarayonining o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan ajralib turadi.

Ingliz tili grammatikasining asosiy elementlari – sintaksis (so‘zlarning tuzilishi) va morfologiya (so‘zlarning shaklini o‘zgartirish)dir. Har bir grammatika qoidasi nafaqat tilning tuzilishini, balki tilning barcha kommunikativ funksiyalarini ta’minlaydi. O‘rganish jarayonida talabalar grammatikani o‘rganishda turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu bois, grammatikani o‘rganish jarayonini samarali va mazmunli qilish uchun pedagogik yondashuvlar va metodikalarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Grammatika – bu tilni aniq va to‘g‘ri ifodalashning asosiy vositasi hisoblanadi. To‘g‘ri grammatik tuzilgan gaplar odamlar orasida tushunishning soddaligini ta’minlaydi. Bunda grammatik qoidalar nafaqat gapning tuzilishini, balki gapning ma’nosini ham aniqlaydi.

Masalan, ingliz tilidagi Present Simple va Present Continuous zamonlari orasidagi farqni olish mumkin:

"She works every day." (U har kuni ishlaydi.) – bu oddiy, doimiy holatni ifodalaydi.

"She is working now." (U hozir ishlamoqda.) – bu hozirgi paytda davom etayotgan harakatni bildiradi.

Bu ikki jumla grammatik jihatdan turlicha, ammo ularning to‘g‘ri ishlatilishi mantiqiy ravishda o‘zaro farq qiladi va nutqning aniqligini ta’minlaydi.

Yozma nutqda grammatikani to‘g‘ri qo‘llash matnning tushunarli va aniqligini ta’minlaydi. Grammatika xatoliklari esa o‘qish jarayonini qiyinlashtiradi va o‘quvchini chalg‘itadi. Masalan, ingliz tilida olmoshlarning va otlarning to‘g‘ri

qo'llanilishi zarur. Grammatikaning noto'g'ri qo'llanilishi esa matnni chalkashtirib yuboradi.

Sintaksis – bu tilning asosiy tuzilishi bo'lib, so'zlarning to'g'ri tartibda joylashishini ta'minlaydi. Ingliz tilidagi oddiy gaplarda sintaksis qoidasi quyidagicha:

Subyekt + Fe'l + To'ldiruvchi.

Masalan, "The student reads a book." (Talaba kitob o'qiydi.)

Noto'g'ri sintaksis esa, jumlanı noto'g'ri tushunishga olib keladi:

"Reads the student a book." (Noto'g'ri jumla.)

Shuningdek, sintaksis qoidalariga befarq bo'lgan holda tuzilgan gaplar, o'quvchi yoki tinglovchida adashish va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Ingliz tilida fe'l zamonlari juda muhim bo'lib, ular gaplarning ma'nosini aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Har bir zamon o'zining qoidalari asosida ishlaydi va uning ma'nosi nutqning tuzilishiga bevosita ta'sir qiladi. Misol uchun:

Present Simple: "I work every day." (Men har kuni ishlayman.)

Present Continuous: "I am working now." (Hozir ishlayapman.)

Present Perfect: "I have worked here for five years." (Men bu yerda besh yil ishladim.)

Ushbu misollar grammatik qoidalari orqali vaqtini aniq ifodalashning ahamiyatini ko'rsatadi. Fe'l zamonlari o'z o'rnida va o'z vaqtida ishlatilsa, gapning ma'nosi to'g'ri tushuniladi.

Ingliz tilida grammatik qoidalari mavjud bo'lsa-da, ularning ko'pchiligida istisnolar mavjud. Masalan, fe'lning uchinchi shaxsida qo'llaniladigan "s" qo'shimchasi istisnolarga ega bo'lishi mumkin:

"He goes" (U boradi.)

"She does" (U qiladi.)

Bunday grammatik istisnolarni o'rganish talabalar uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki ular o'zbek tilidagi oddiy va izchil qoidalardan farq qiladi.

Til o'rganish jarayonida ona tilining ta'siri juda katta. Ko'p hollarda ona tilidagi grammatik tuzilmalarning ingliz tiliga ko'chirilishi xatoliklarga olib keladi. Misol uchun, o'zbek tilida fe'lni jumlaning oxirida qo'llash odat bo'lsa, ingliz tilida esa fe'l doimo subyekt va ob'ekt o'rtasida joylashadi.

Grammatikani o‘rganishning yana bir muhim omili – bu amaliyot. Ko‘pincha talabalar faqat nazariy bilimlarni olishadi, lekin grammatikani mustahkamlash uchun uni doimiy ravishda yozma va og‘zaki nutqda qo‘llash zarur.

Grammatika o‘rganish jarayonini yanada samarali qilish uchun turli interfaol usullarni qo‘llash mumkin. Masalan:

“Fill in the blanks” (Bo‘sh joylarni to‘ldirish)

“Sentence building” (Jumlalarni qurish)

“Role play” (Rolli o‘yinlar)

Bu usullar nafaqat grammatikani o‘rganishning samaradorligini oshiradi, balki o‘rganishni qiziqarli va faol qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar grammatikani o‘rganishda yordam berishi mumkin. Masalan, Duolingo, Grammarly, BBC Learning English kabi ilovalar orqali talabalar grammatika bo‘yicha bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Grammatika o‘rganishning samarali yo‘llaridan biri – bu ingliz tilida muloqot qilishdir. O‘rganilayotgan tilni doimiy ravishda ishlatish, grammatika qoidalarini amaliyotda qo‘llash orqali tilni o‘rganish yanada tezlashadi va chuqurlashadi. Ingliz tilida bo‘lish va muloqot qilish o‘quvchilarga o‘z bilimlarini mustahkamlashda va grammatikani to‘g‘ri ishlatishda yordam beradi. Til muhitida bo‘lish, yangi grammatika qoidalarini o‘rganishning samarali usulidir, chunki bu usulda talabalar grammatikani tabiiy ravishda o‘rganadilar.

Grammatika o‘rganish jarayonida motivatsiya juda muhim o‘rin tutadi. O‘rganish jarayonida talabalar doimo yangi bilimlarga intilishlari, o‘z-o‘zini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Grammatika qoidalarini yodlash va to‘g‘ri qo‘llash, o‘quvchini maqsad sari yetaklaydi va muvaffaqiyatlarga erishishga yordam beradi.

O‘rganilgan grammatika qoidalarini baholash o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tekshirish va qayerda xatoliklar borligini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon o‘quvching o‘zini tahlil qilishiga, grammatikani yaxshi o‘zlashtirishiga va o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan joylarni aniqlashiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili grammatikasi – tilni o‘rganish jarayonining asosiy qismidir va uning muhimligi har bir til o‘rganuvchi uchun aniq ko‘rinadi. Grammatik qoidalar nafaqat yozma va og‘zaki nutqning to‘g‘ri tashkil etilishiga yordam beradi, balki mantiqiy va aniq fikr ifodalashga ham yordam beradi. Ingliz tili grammatikasini o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodikalar va texnologiyalar yordamida samarali o‘rganish usullarini qo‘llash lozim. Grammatikaning to‘g‘ri o‘zlashtirilishi o‘quvchilarni tilni mukammal bilishga va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide. Cambridge University Press.
2. Swan, M. (2005). Practical English Usage. Oxford University Press.
3. Eastwood, J. (1994). Oxford Guide to English Grammar. Oxford University Press.
4. Leech, G., & Svartvik, J. (2002). A Communicative Grammar of English. Longman.
5. Thornbury, S. (1999). How to Teach Grammar. Longman.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda hadis ilmining pedagogik, psixologik ta'siri

Sobirov Ziyovuddin Po'latjon o'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti

Pediatriya yo'nalishi 2-kurs talabasi

ziyovuddin23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotidan so'ng insonlar hayoti uchun, ularning ham ma'naviy, ham madaniy holatini yaxshilashda katta ta'siri bo'lgan hadislarning talabalarning hayotidagi o'rni haqida so'z borgan. Biz yoshlari uchun hozirgi kunda Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Imom al-Hajjoj, Imom an-Nasoniy, Imom Sijjistoniy kabi allomalarimizning qimmatbaho asarlarida keltirilgan hadislarning insonlar hayotida o'rmini ham ko'rib o'tishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. Hadis, Muhammad (s.a.v.), Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Imom al-Hajjoj, Imom an-Nasoniy, Imom Sijjistoniy, musnad, sahih, sunnan.

Kirish. Hadislari – Islom dinining manbaalaridan biri bo'lib, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va u kishiga bog'langan tasdiq va rad etilganini o'z ichiga oladi. Hadis ilmi islomiylar asosida o'rganiladigan muhim sohalardan biri bo'lib, u nafaqat diniy bilimlarni, shuningdek, talabalar psixologiyasi va pedagogikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hadislari Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari va amallari sifatida, talabalarga axloqiy, ma'naviy va ilmiy jihatdan yetuk inson bo'lishlariga yordam beradi. Hadislari ma'naviy tarbiya sifatidagi talabalarga chuqur axloqiy, ma'naviy tushunchalarni singdiradi. Ular orasida halollik, to'g'ridan-to'g'ri mehr-oqibat kabi kelib chiqadigan xislatlar hadislari orqali ilm ahliga yetkaziladi. Masalan, Payg'ambarimiz (s.a.v.) bir hadislari: "Sizlarning yaxshi odob-axloqi chiroyli bo'lganlaringizdir" degan. Ilm olishning qadr-qimmati haqida